



## TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA VATANPARVARLUK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH

R.X.Jiyanqulova,

N.Toshpo'latova

O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti



### ФОРМИРОВАНИЕ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА УЧЕНИКОВ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

#### **Annotatsiya:**

Maqlada milliy qahramonlar siymosini yaratish orqali o'quvchilarni Vatanparvarlikni shakllantirish, sovg'a buyumlar tayyorlash texnologoyasi haqida, kasb o'rgatish usullari haqida malumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** texnologik ta'lif, Vatanparvarlik tuyg'usi, Vatan qahramonlari siymosi, kasb-hunar, qadriyatlar, amaliy san'at texnologiyasi.

#### **Аннотация:**

Статья знакомит учащихся с формированием патриотизма, технологией изготовления подарков, методами профессиональной подготовки путем создания образа национальных героев.

**Ключевые слова:** технологическое образование, чувство патриотизма, образ героев Отечества, профессия, ценности, технологии прикладного искусства.

#### **Annotation:**

The article introduces students to the formation of patriotism, the technology of making gifts, the methods of professional training by creating the image of national heroes.

**Keywords:** technological education, feeling of patriotism, the image of the heroes of the Fatherland, profession, values, technologies of applied art.

Yer yuzidagi rivojlangan davlatlarda ilm, fan, iqtisodiyotni rivojlantirishda ta'lif sifatini oshirishga jiddiy e'tibor berilgan. Bu borada mamlakatimizda ham soo'nggi



yillarda ta'lim sifatini oshirishga jiddiy e'tibor qartilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Prezidenti xalqimizga Murojaatnomasida "ijtimoiy davlat" tamoyiliga alohida e'tibor qaratgan edi. Aynan aytganda, "Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, demakdir" [1]. "Ta'lim sifatini oshirish-yangi O'zbekistonn tarqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir" mavzusidagi o'qituvchi-murabbiylar bilan uchrashuvda izchil vazifalar belgilab berildi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023- yil 20 yanvar kuni maktablarda xorijiy tillar va kasb o'rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilish o'tkazildi. Bunga erishishning asosi, birinchi navbatda, ta'lim. Shu bois Murojaatnomada maktab o'quvchilarini kamida ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish ustuvor vazifa etib belgilangan edi [3].

Shunday ekan ta'lim-tarbiyani ijtimoiy maqsadga asoslanib olib borish, yoshlarga kasb-hunar o'rgatish, tadbirkorlik qilishlari uchun yo'naltirish uchun imkoniyatlar mavjud.

Buning uchun texnologiya ta'limi jarayonida va to'garaklarda o'quvchilarimizga hunar o'rgatish asnosida ularda Vatanga muhabbat va vatanparvarlik hislarini shakllantirish, kasb-hunarga o'rgatish kechiktirib bo'lmaydigan vazifa hisoblanadi. Buning uchun hozirgi kun talabidan kelib chiqib zamonaviy materiallardan milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimiz, mutafakkirlar, millat qahramonlarining siyemosini amaliy san'atning turli sohalarida qo'llash uchun imkoniyatlar mavjud.

Respublikamizda Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi millat qahramonlar tavallud kunlari mamlakatimiz barcha ta'lim muassasalarida nishonlash an'anaga aylangan. Bu tadbirlarga har kim o'z iqtidori doirasida tayyorgarlik ko'rishadi. Jumladan, texnologiya darslarida amaliy san'at turlari bilan mujassam holda xalq qahramonlarini siymolarini yaratish imkon mavjud. Buning uchun o'quvchida Vatanni sevish, Vatan qahramonlariga hurmat, vatanparvarlik tuyg'ularining shakllangan bo'lishi kifoya.

Sohibqiron Amir Temur Mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mavqeyini mustahkamlab, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish maqsadida faoliyat yuritgan. Quyida biz sohibqiron Amir Temur tavallud kuni munosabati bilan sovg'a yasash texnologiyasini keltirib o'tamiz;

## “Amir Temur portretini tayyorlash” texnologiyasi

**Kerakli materiallar:** Sopol lagan, emulsiya, lak, gips, turli rangli rasm va yaltiroq tosh, bisser va munchoqlar, yelimlar, kukun bezaklar.

### Ishning borishi:

- Sopol lagan emulsiya bilan oq fonga keltirib boyab olinadi;
- Naqshni folga qog’ozdan yuzaga ko’chirib olinadi;
- Yuzaning o’rtasidan boshlab ranglarga mos toshlar yelim yordamida yopishtirib olinadi;
- Idishning cheti gips bilan bezak beriladi va quritiladi;
- Idishning chetiga rang bo’yoq beriladi;
- Idish yuzasi lok- bo’yoq bilan loklanadi va zar sepiladi
- lok quriguncha olib qo’yiladi.

Mazkur texnologiya asosida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi xalqimizning buyuk siymolari yubileylariga atab sovg’alar tayyorlash mumkin bo’ladi.



Xulosa o’rnida shuni aytish munkinki bu kabi sovg’alarni ko’plab yasash mumkin. Har bir ishni boshlashdan oxirigacha shak-shubhasiz millat va Vatanni sevish

## **Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

Hosted online from Toronto, Canada.

**Date:** 5<sup>th</sup> March, 2023

ISSN: 2835-5326

**Website:** econferenceseries.com

tuyg'usi shakllanishi tabiiy. Buni nafaqat texnologiya o'qituvchisi balki har bir o'qituvchi va murabbiy o'zining Vatan oldidagi burchi deb bilishi lozim.



### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. 2022.20.12.
2. Sh. Mirziyoev. "Ta'lif sifatini oshirish-yangi O'zbekistonn tarqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir". Toshkent. 2022. 29.12.
3. Sh. Mirziyoev. "Maktablarda 64 xil kasb o'rgatiladi, xorijlik o'qituvchilar jalg qilinadi". Toshkent. 20.01.2023 Vikipediya. San'at.
4. Vikipediya. San'at.
5. Sh.Mamasoliyeva. Xalq hunarmandchiligi. Samarqand. SamDU nashriyoti. 2021.276 b.
6. R.X.jiyanqulova. Servis xizmati: tikuvchilik materialshunosligi. Samarqand. SamDU nashriyoti . 2022.-138b.